

IRONIYANING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Tursunova Sojidadxon Axmadjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili mutaxassisligi 1-kurs tayanch doktoranti

Sojidadtursunova0525@gmail.com

+99893 673 93 98

Annotatsiya:

Insonlarning o'zaro aloqa qilishlarida eng asosiy vosita til hisoblanadi. Tilimizda so'zlardan turli maqsadlarda foydalanamiz, ular har xil mazmundagi xabarlarni ifodalashga xizmat qiladi. So'zlardan o'z o'rnida, to'g'ri foydalanish insonlar nutqining boyishiga sabab bo'ladi. Ironiya nutqning silliq, bejirim bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada ironiya, uning turlari, situativ va gradual ironiya, kinoya, ko'chim, paranomaziya, ironiyani satiraga yaqinlashtiruvchi holatlar, ularning farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan. Qolaversa, ironiyaning salbiy va ijobiy bo'yoqdor so'z ekanligi tahlil qilingan, misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: ko'chim, ironiya, situativ ironiya, gradual ironiya, kinoya, satira va ironiya munosabati hamda boshqalar.

Ironiya ko'p qirrali hodisa. Unga ko'plab tilshunoslar murojaat qilishgan. Turli adabiyotlarda turli xil fikrlarni uchratishimiz mumkin. Ironiyaga har tarafdin yondashilgan. Mavjud adabiyotlarda ironiya haqidagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, ironik mazmun ikki xil ifodalanadi. Birinchi qarash tarafdorlari ironiya so'z va iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali hosil bo'ladi, desalar, ikkinchi qarash tarafdorlari ironiya so'z va iboralarni alohida, maxsus qo'llash orqali hosil bo'ladi deyilar.

Til birliklari nuqtayi nazaridan, ironik mazmun ifodalashni fonetik-intonatsion, leksik-frazeologik, morfologik hamda sintaktik birliklar tizimida o'rganish mumkin. Albatta, ironiya hosil qilishda intonatsiyaning roli muhimdir. Masalan, "farishta" so'zi ijobiy ma'noda (Bu qiz farishtaning o'zi) poklik ramzi sifatida ishlatilsa, nutqiy vaziyat talabi bilan teskari ma'noda iflos, buzuk ayol ma'nolariga ega bo'lishi mumkin. "Yozuvchi" so'zi ham o'z ma'nosida ishlatilganda ijodkor insonni

anglatsa, ko'chma ma'noda qo'llanilganda boshqalarning ustidan bo'lar-bo'lmasga shikoyat qilib yozadiganlarga nisbatan ishlatiladi.

Ko'rinadiki, ironiya ko'p qirraga ega bo'lgan filologik yondashuvli nutqiy hodisa sifatida boshqa uslubiy vositalar doirasida, ular qamrovida o'rganishni talab etadi.

Badiiy asar tilida tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni g'ayri odatiy tarzda, boshqacharoq tasvirlashga intilish ehtiyoji kuchli bo'ladi, bu holat fikrni ta'sirliroq ifodalash usullarini topishga sabab bo'lib, ular ijodkor qo'lida ta'sirchan nutq ko'rinishlarini shakllantiruvchi va subyektiv munosabat ifodalovchi vositaga aylanadi. Bunday vositalardan biri, shubhasiz, ironiyadir.

Ironiya grekcha "ironeia" so'zidan olingan bo'lib, "bilib bilmaganga olish" va "nozik masxaraomuz kulgi" degan ma'nolarni anglatadi.

Ironiya jonli, nutqiy jarayonda yuzaga chiquvchi subyektiv modallik ko'rinishlaridan biri bo'lib, so'zlovchining salbiy munosabatini ifoda etuvchi uslubiy vositadir.

"So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash, dastlab, lug'atlardagi so'zlarning ma'no jihatdan qashshoqligi tufayli kelib chiqqan bo'lsa, asta-sekin go'zallik va jozibadorlikka bo'lgan ehtiyoj ularning ma'nolarini kengaytira boradi. Bu esa xuddi kiyim dastavval, sovuqdan himoyalaniish vositasi sifatida vujudga kelgan-u, keyinchalik kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganga o'xshaydi", - deb yozadi qadimgi yunon faylasufi Sitseron. [E.Ibragimova 2001:26].

Uslubshunoslikning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri nutq madaniyatini shakllantiruvchi badiiy tasvir vositalarini o'rganish, ta'sirchan nutq ko'rinishlarini yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydigan uslubiy vositalarni aniqlash va ularning sistemasini yaratishdan iboratdir.

Ironiya faqat istehzoli kulgi yuzaga keltiruvchi vosita bo'lib qolmasdan, katta bir ijtimoiy mazmun kasb etishi mumkin. Uning badiiy uslubdagi xizmati shundan iboratki, fikr vulgar, qo'pol holda emas, balki bir muncha silliq, pardali, madaniy libos kiydirilgan holda bayon qilinadi. Ironiya orqali badiiy asarda zaharxandalik va hatto alamli his-tuyg'ular ma'lum qobiqqa o'ralgan holda ifoda etiladi.

Tilshunos olim O.S.Axmanova aytganidek: "ironiya ustidan kulishning nozik va yashirin mazmun orqali teskari ma'noda ishlatish maqsadiga asoslanadi".

Ironiyani tilning barcha tasviriy vositalariga tenglashtirib bo'lmaydi: "Tilning tasviriy vositalari so'z qo'llashning hamma obrazli ko'rinishlari, so'z birikmalari va tovushlarni tasviriy qo'llashga nisbatan aytilib, ko'chma turlarning hamma



ko‘rinishi umumlashtirilib “troplar” atamasi ostiga birlashtiriladi. Tasviri vositalar tavsiflash uchun xizmat qiladi. Ko‘chma ma’noli vositalarga metafora, metonimiya, giperbola, litota, ironiya, parafraza va boshqalarning so‘z va iboralar yozdamida qo‘llaniluvchi usullar kiradi”.

Olib borilgan izlanishlar natijasida ironiya hosil qilishning asosiy ikki turini aniqladik:

1. Situativ (vaziyatli) ironiya.
2. Assosiativ (darajali) ironiya.

Har bir tur yoki tip ma’lum maqsad asosida rejalashtirilgan kontekstlarda amalga oshiriladi, shu orqali ularning parametrlarini aniqlash imkoniyati tug‘iladi. Ironiyaning har ikki ko‘rinishi bir-biridan farqlanadi.

1. Situativ ironiya – emotsional jihatdan aniq, ravshan ironiya hisoblanadi. Uning bu turini tez anglash mumkin. So‘z, gap yoki so‘z birikmasining to‘g‘ri ma’nosi bilan kontekstdagi ma’no orasidagi farq – ziddiyat darhol seziladi. Ironiyaning bu tipi mikro va makrokontekstlarda hosil bo‘ladi. Uni yuzaga chiqarish uchun fonetik-intonatsion, leksik, frazeologik, shuningdek, sintaktik vositalardan keng foydalaniladi. Bunday vositalar yordamida ikki xil strukturaga ega bo‘lgan oddiy kontekst shakllantiriladi. Uning yordamida situatsiya bayoni va muallif yoki qahramon tomonidan beriladigan baho, izoh o‘z ifodasini topadi.

Situativ ironiya badiiy asar doirasida kutilmagan, tasodifiy subyektiv munosabatlarni yorqin detallar bilan ifoda etishda muhim ahamiyatga ega. Ironiyaning bu turi ko‘proq dialogik nutq ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

2. Assotsiativ ironiya – badiiy asar tizimida o‘zining ifodalanish usuli, vositasi jihatidan murakkab xususiyatga ega bo‘lgan ironik ko‘rinishi. Assotsiativ ironiya ifodalashning shunday bir usulidirki, unda shaxsiy munosabat anchagacha yashirin, asta-sekinlik bilan yuzaga chiqadi. Bunda til yoki nutq birliklari ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, so‘zlovchining asosiy maqsadi darajalangan holda oshkor etiladi. Ironik mazmun ifodalashning bu usulini darajali (gradual) ironiya deb ham atash mumkin. Gradual ironiya ko‘pincha makromatn ko‘rinishlarida kuzatiladi. [E.Ibragimova 2001:37].

Ironiya – badiiy asarlardagi uslubiy vosita – ikki ma’noda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan so‘z yoki gaplarni qo‘llash bilan ularning asosiy ma’noga teskari, hatto uni inkor etuvchi ma’nosi orqali kinoya, qochiriq, piching, kesatiq, mazax ma’nolarini ifodalash. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-tom 2006:225].

Adabiyotshunoslik lug'atida ironiyaga shunday ta'rif beriladi: "Ironiya yunoncha "eironeia" so'zidan olingan bo'lib, aynan, o'zini go'llikka solish degan ma'nolarni bildiradi". [D.Quronov 2013:122].

Tadqiqotchi O.S.Mindrul ironiya olgan so'zda kuzatiladigan semantik o'zgarishlarini quyidagicha izohlaydi: 1. So'z ma'nosining o'zgarishi: a) butunlay qarama-qarshi ma'no yuzaga keladi; b) so'zning ijobiy baho darajasi kamayadi. 2. So'zda implitsit konnotatsiyaning paydo bo'lishi: a) so'zning ingerent salbiy baho darajasi kamayadi; b) neytral baholi so'zda salbiy baho hosil bo'ladi. [Y.Odilov 2016:80].

Tadqiqotlarda ironiyaning faqat baho salbiylashuviga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ba'zan shunday hollar bo'ladiki, bunda ironiyaning ayni jihati kuzatilmaydi. Shu sababli ironiyaga faqat salbiy baho ifodasi deb qarash ma'qul emas, chunki muvofiq kontekstda ironiya salbiy bahoni ifodalamasligi ham mumkin. Masalan: professor Salohiddin Mamajonov bir maqolasida: "Adabiy tanqidchilikda yozilmagan adolatsiz bir qoida bor: u ko'pincha to'rt-besh mashhur nomlar atrofida gir-gir aylanaveradi-yu, adabiyot rivojiga o'z ulushini qo'shgan "nomashhur"larga qiyos boqmaydi". (A.Ko'chimov "Kamtarlikning baland cho'qqisi"). Nomashhur so'zining ayni kontekstdagi okkazional ma'nosida ijobiy baho mavjud. [Y.Odilov 2016:86].

So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda, umuman olganda, badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishda qimmatli manbalar hisoblanadi. Badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida ularning o'rni beqiyosdir. Ironiya ham shunday vositalar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Sh. Kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar. Filol. fan. nom. diss. avtoref., 1998.
2. Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. Filo.fan.n.diss. 6918/2001.
3. Knox N. The word "irony" and its context. – Durham (N.C.): Duke univ.press, 1966.
4. Mueske D.C. The compass of irony. – London: Methuen d LTD, 1969. C.10. – P.276.
5. Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya. Dis-232/2016.

6. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006.

